

SCIENCE PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

2/S-son (4-jild)

2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ S/2 (4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Ҳожаев Азизхон Саидалоҳонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулув Жамолiddиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудир;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Ҳашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Қаюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохидат Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психология кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Караматдиновна – психология фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

Содиқова Шоҳида Мархабобевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атақулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

Полвонов Козимбек

ЎЗБЕКИСТОННИНГ ЖАНУБИЙ ШАҲАРЛАРИ ТОПОНИМИГА ОИД
МАЪЛУМОТЛАР 10-15

Hadjamuratova Matlyuba

МАКТАВГАСНА ТА’ЛИМДА БОЛАЛАРНИ ИЈТИМОЙ НИМОYA QILISHGA INNOVATSION
YONDOSHUVNING DOLZARBLIGI 16-21

Шовкатов Шокир Шовкат ўғли

АБУЛ-ЮСР ПАЗДАВИЙ ИЛМИЙ МЕРОСИНИ ЎРГАНИШДАГИ ЁНДАШУВЛАР 22-31

Mo‘minov Xusanboy Madaminjonovich, Qodirjonov Omadjon Tavakkaljon o‘g‘li

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SUD QONUNCHILIGIGA KIRITILGAN O‘ZGARISHLAR VA
ULARNING ANAMIYATI 32-36

Пардаев Асрор

ҚАШҚАДАРЁ ВИЛОЯТИ АҲОЛИСИНИ ХАЛҚ ИСТЕЪМОЛИ ВА ОЗИҚ-ОВҚАТ
МАҲСУЛОТЛАРИ БИЛАН ТАЪМИНЛАШ МАСАЛАЛАРИ 37-42

08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

Умурзақова Мўътабархон Нодир қизи

ЖАХОНДА ТИББИЙ СУҒУРТА ТИЗИМИНИНГ РИВОЖЛАНИШ ХУСУСИЯТЛАРИ 43-52

Рахманов Зафар

ТИЖОРАТ БАНКЛАРИДА ДЕПОЗИТ ОПЕРАЦИЯЛАРИНИНГ РИВОЖЛАНИШ
ТЕНДЕНЦИЯЛАРИНИ БАҲОЛАШ 53-62

Аминов Фазлитдин Бахадирович

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ СЕМЕЙНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В ЭКОНОМИКЕ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН 63-70

Курбонова Шахриноз Авазхоновна

ИҚТИСОДИЁТНИ ДИВЕРСИФИКАЦИЯЛАШ ЖАРАЁНЛАРИДА АСОСИЙ ВОСИТАЛАР
ТАҲЛИЛИНИ ЎЗИГА ХОС ЖИҲАТЛАРИ 71-81

Azimova Hulkar Egamberdiyevna

KREDIT PORTFELINI SAMARALI BOSHQARISHDA TIJORAT BANKLARINING O‘RNI 82-87

Rajabov Orzujon Mamasoliyevich

LOGISTIKA XIZMATLARINI KO‘RSATISHDA BUYUMLAR INTERNETI (INTERNET OF
THINGS)DAN FOYDALANISH 88-93

Саидов Сарвар Хайруллоевич

ДАВЛАТ ХИЗМАТЧИЛАРИДА БОШҚАРУВ КОМПЕТЕНЦИЯЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ
БОРАСИДА ХОРИЖ ТАЖРИБАСИ 94-104

Сержанов Аймурат Медетбаевич

ХАЛҚАРО АМАЛИЁТ ВА ЎЗБЕКИСТОНДА РАҚАМЛИ БАНКЛАР ХИЗМАТЛАРИНИ ЯРАТИШ
ЗАРУРИЯТИ 105-111

Туробов Шерзод Алишеревич, Ибодуллаев Зафар Ибодуллаевич

ТИЖОРАТ БАНКЛАРИ ФАОЛИЯТИНИ ТАРТИБГА СОЛИШНИНГ ХОРИЖ
ТАЖРИБАСИ 112-119

Daniyarova Feruza Baxriddinovna, Chinorova Shahodat Mansur qizi

O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA HORIJIIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISH
YO‘LLARI 120-126

Temirova Feruza Sagdullayevna
XULQ-ATVOR IQTISODIYOTI VA BRENDGA SODIQLIK 127-132

Sharipova Shaxzoda Xasanovna
YANGI O'ZBEKISTONDA TURIZM MADANIYATINI YUKSALTIRISH ISTIQBOLLARI 133-138

09.00.00 - ФАЛСАФА ФАНЛАРИ

Алимова Шахноза Хамидовна
НОГИРОНЛИГИ БОР ЁШЛАР - АЛОҲИДА ХУСУСИЯТГА ЭГА ИЖТИМОЙ-ДЕМОГРАФИК
ГУРУҲ СИФАТИДА 139-147

Асракулова Адиба Набиевна
“ЁШЛАР ВА БИЗНЕСНИ ҚЎЛЛАБ-ҚУВВАТЛАШ ЙИЛИ” НИНГ ҚАБУЛ ҚИЛИНИШИ
ТАДБИРКОРЛАРНИНГ ИҚТИСОДИЙ ТАФАККУРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДАГИ
АҲАМИЯТИ 148-154

10.00.00 - ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

Teshabayeva Dilfuza Muminovna
LEXICAL PROBLEMS OF TRANSLATING THE NAMES OF NEW PHENOMENA IN MASS
MEDIA 155-160

Rustamov Ilhom Tursunovich, Inog'omjonova Robiya Rustamjon qizi
INTERFERENSIYA HODISASINING TILDA AKS ETISHI XUSUSIDA OLIMLARNING
TADQIQOTLARI VA QARASHLARI 161-165

Abdikhamidova Sevinch Obidjon kizi
PROBLEMS FACED IN TRANSLATING PROPER NOUNS 166-170

Djurakulova Elmira Suyunova
SHOYIM BO'TAYEV ROMANLARIDA BADIY XRONOTOP VA MIFOLOGIK TALQIN 171-177

Dalieva Madina Khabibullaevna
THE ROLE OF BLENDING THEORY IN POLYSEMY AND METAPHOR 178-183

Жўраева Ирода Ахмедовна
ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК АНТРОПОНИМИК ЛУФАТЛАР ТИПОЛОГИЯСИ 184-189

Iminova Shahnoza-Begim Bahodirovna
INGLIZ TILIDA INSONNING IJOBIY AQLIY XUSUSIYATLARINING IFODALOVCHI
BIRLIKLARINING KONSEPTUAL, LINGVO-MADANIY XUSUSIYATLARI 190-193

Irgasheva Shoxida Sadriddinovna
INTERNET DISKURSIDAGI IQTISODIY NEOLOGIZMLARNI TARJIMA QILISH
XUSUSIYATLARI 194-200

Tursunova Zarina Farxodovna
LINGVISTIKADA EMOTLARNI O'RGANISHGA ZAMONAVIY YUNDASHULAR (INGLIZ TILI
ASOSIDA)..... 201-205

Satibaldiyev Erkinjon Kamilovich
PARADIGMATIC SOUND INTERFERENCE IN THE ENGLISH SPEECH OF
TURKOPHONES 206-212

Radjabova Hafiza Shukrulloevna
INGLIZ VA O'ZBEK TERMINOLOGIYASINING METODOLOGIK ASOSLARI 213-220

Avezova Dilovar Salimovna
TAXALLUSLARNI O'RGANISHNING NAZARIY JIHATI 221-225

<i>Alikberova Kamila Adhamovna</i> A CRITICAL ANALYSIS OF LANGUAGE USE AND LANGUAGE ACQUISITION	226-232
<i>Rakhmatova Bahara Ibodulla qizi</i> THE ROLE OF LEGAL DISCOURSE IN MODERN LINGUISTICS	233-238
<i>Valieva Nargizakhon Zamir kizi</i> COMPARATIVE ANALYSIS OF “KITE RUNNER” AND “A THOUSAND SPLENDID SUNS” BY KHALED HOSSEINI: THEMES, CHARACTERS, AND SOCIOPOLITICAL CONTEXT	239-244
<i>Mamatqulova Zilola Rejabaliyevna</i> RISHTON KULOLCHILIK MAKTABI KASB-HUNAR LEKSIKASINING STUKTURAL TASNIFI	245-251
<i>Alimova Kamola Tursunovna</i> CHALLENGES IN PREPARATION OF GUIDE TRANSLATORS	252-258
<i>Сейтумбетова Айкумар Пулатбаевна</i> ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В АНГЛИЙСКОМ, РУССКОМ И КАРАКАЛПАКСКОМ ЯЗЫКАХ.....	259-264
<i>Бегжанова Айсилу Махмудовна</i> ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИДА КОМПЬЮТЕР ЛИНГВИСТИКАСИ ТЕРМИНЛАР ТИЗИМИНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ	265-270
<i>Kubanova Ilmira Sharifovna</i> EXPLORING ABBREVIATED RAILWAY TERMINOLOGY IN ENGLISH: A COMPREHENSIVE ANALYSIS	271-275
<i>Azamjonova Sarvinoz</i> USE OF TOPONYMS IN MODERN FRENCH MEDIA	276-282
12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР	
<i>Muxiddinova Dildora Muxiddinovna</i> O‘ZBEKISTONNING BOJXONA FAOLIYATIGA KIOTO KONVENSIYASINI JORIY ETISHNING HUQUQIY JIHLTLARI VA JSTGA A‘ZOLIKNING TA‘SIRI	283-292
<i>Asadov Eldorjon Nizomiddin o‘g‘li</i> SOLIQ NAZORATI HUQUQIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH DAVLAT MOLIVAVIY NAZORATI INSTITUTINING MUHIM OMILI	293-298
<i>Mustanov Ixom Abdivalijonovich</i> BANK QONUNCHILIGINI BUZGANLIK UCHUN JAVOBGARLIKNING NAZARIY-HUQUQIY JIHLTLARI	299-304
<i>G‘oyibov Jo‘rabek Choriyevich</i> YOSHLAR MIGRATSIYASI: MUAMMO VA YUTUQLAR TAHLILI	305-309
13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ	
<i>Kuziyev Otabek Chuliyevich</i> TALABALARDA AXBOROT MODELLASHTIRISH KO‘NIKMASINI SHAKLLANTIRISHNING MUHIM UCH BOSQICHI	310-314
<i>Fattaxova Diloram</i> TIL O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN KOMPYUTER METODLARI	315-321
<i>Moydinova Elmira</i> APPLICATION OF FLIPPED LEARNING METHODS IN THE UNIVERSITY	

CLASSROOM	322-326
<i>Xodiyeva Gulhayo Hasan qizi</i>	
ZAMONAVIY BOSHLANG'ICH TA'LIMDA 4K MODELI KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHGA INTEGRATIV YONDASHUVNING MOHIYATI	327-333
<i>Doniyorova Gulrux Shoniyozovna</i>	
AVTOMOBILSOZLIK YO'NALISHI TALABALARINING KASBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA DASTURIY VOSITALARNING AHAMIYATI	334-338
<i>Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna</i>	
RIVOJLANTIRUVCHI TA'LIMINING ASOSIY NAZARIYALARIDA TA'LIM OLUVCHINING ANALITIK QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI	339-344
<i>Xo'jamberdiyeva Dilfuza Ikramovna</i>	
DARSLIK BILAN ISHLASH O'QUVCHILARNING AXBOROT KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH VOSITASI SIFATIDA	345-351
<i>Mamaraimov Bekzod Qodirovich</i>	
O'QUVCHILARNING TADQIQOTCHILIK KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH VA ULARNING QIDIRUV FAOLIYATIGA TAYYORLIGI	352-356
<i>Xudayberdiev Nurislam Nuralievich</i>	
BO'LAJAK O'QITUVCHILARINING RAQAMLI KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHNING TASHKILIIY-PEDAGOGIK MEXANIZMI	357-363
<i>Qarshiyev Jamshid Murotaliyevich</i>	
TALABALARINING O'QUV FAOLIYATI VA ILMIY IZLANISHLARIDA SUN'IY INTELLEKT: IMKONIYAT VA CHEGARALAR	364-369
<i>Teshaboyeva Shahodat</i>	
ZAMONAVIY SHAROITDA SHAXSNING KASBIY HUQUQIY MADANIYATI	370-375
<i>To'rayeva Dilnoza Ismoilovna</i>	
RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA BO'LAJAK O'QITUVCHINING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH USLUBIY TAYYORGARLIKNING BIR QISMI SIFATIDA	376-380
<i>Beknayeva Shaxnoza Vladimirovna</i>	
MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA INSON RESURSLARINI BOSHQARISHDA INNOVATSION JARAYONLAR	381-388
<i>Dusyarov Salimjon Xudaymurotovich</i>	
HARAKATLI O'YINLAR ASOSIDA MAKTAB O'QUVCHILARIDA JISMONIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH	389-393

Djurakulova Elmira Suyunova
Toshkent davlat yuridek universiteti qoshidagi
akademik litsey o'qituvchisi

SHOYIM BO'TAYEV ROMANLARIDA BADIY XRONOTOP VA MIFOLOGIK TALQIN

Annotatsiya. Ushbu maqolada xronotop va mifologik talqin badiiyatiga keng to'xtalib o'tilgan bo'lib, "Shox" romanida badiiy ifodasini topgan jamiyat taloto'plari, odamlar ruhiyatidagi shon-shuhratga tashnalik, mehnatsiz mo'may daromad sohibi bo'lishga intilish, o'z kelajagini harom-xarish, aysh-ishrat yo'llari bilan parokanda qilishlik g'oyasi keng tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: badiiy xronotop, makon va zamon, sujet, qahramon ruhiyati, makon va vaqt.

Djurakulova Elmira Suyunova
Teacher of the academic lyceum at
The Tashkent State University of Law

ARTISTIC CHRONOTOPE AND MYTHOLOGICAL INTERPRETATION IN SHOYIM BOTAYEV'S NOVELS

Abstract. In this article, the artistry of chronotope and mythological interpretation has been extensively discussed, and the social upheavals, the thirst for fame in the psyche of people, the desire to have a good income without hard work, and the desire to have a good income without work, which have been artistically expressed in the novel "Shokh" The idea of desecrating the future of z by means of luxury has been subjected to extensive analysis.

Key words: artistic chronotope, space and time, subject, psyche of the hero, space and time.

Джуракулова Элмиоа Суюновна
преподаватель академического лицея Ташкентского
государственного юридического университета

ХУДОЖЕСТВЕННЫЙ ХРОНОТОП И МИФОЛОГИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ В РОМАНАХ ШОЙИМА БОТАЕВА

Аннотация. В данной статье широко обсуждаются художественность хронотопа и мифологическая интерпретация, а также социальные потрясения, жажда славы в психике людей, стремление иметь хороший доход без тяжелого труда, стремление иметь хороший доход без труда, которые были художественно выражены в романе «Шох». Идея осквернения будущего з посредством роскоши подверглась обширному анализу.

Ключевые слова: художественный хронотоп, пространство и время, сюжет, психика героя, пространство и время.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI2Y2024N23>

Roman o'zigacha bo'lgan davrda barcha janrlarning sintezi sifatida yuzaga keldi. Epos va roman haqidagi tadqiqotlarda bu haqda juda ko'plab ma'lumotlar yoritildi. Ayniqsa, rus olimi M.M.Baxtin roman nazariyasiga oid va uning rivojlanishi, uslub va poetik qonuniyatlari xususida katta tadqiqotlarni yaratdi. "XX asr adabiyoti inson dunyosi va ruhiyatini tahlil qilar ekan, ya'ni u o'ziga bo'lgan adabiyotdan ko'ra inson ruhiyati va qalbiga ko'proq yaqinlashar, uni tadqiq qilar ekan, ana shu ruhiyat va qalbdan ilk insonlar dunyosi kabi mifologik timsollarga duch keladi" [1].

Mifologik kiritma voqelik Shoyim Bo'tayevning hamma asarlarida sujet va kompozitsion jihatdan juda mos va xos ravishda tanlanadi. Yozuvchining "Shox" asarida janob Ximer obrazi ham, juda ko'plab shunga o'xshash shayton obrazlari mifopoetik talqin mahsuli ekanligini yodimizga soladi. Yozuvchi mif ramziy timsolidan makon va zamonni tahlillaydi. Qadim afsona va rivoyatlarni yangi davr kishilari ruhiyatida avlodlardan avlodga ko'chib yurish mayllarini, nafs, yovuzlik va ezgulik orasidagi mangu kurashning davomiy ekanligini turli tafsilotlar negizida dalolatlaydi.

Adabiyotshunos U.Jo'raqulov: "Bevosita badiiy asar, xususan, romanga xos poetik komponentlar nuqtayi nazaridan qaraganda ro'yxatning birinchi qatoriga sujet chiqadi. Zotan, sujetning biror bo'lagi (ekspozitsiya, tugun, kulminatsiya, yechim va h.k.) yo'qki, u xronotopsiz biror ma'no kasb etsin. Chunki sujet (va birbutun asar) tarkibida faqat xronotopgina: "zamon va makonni yagona moddiylashtiruvchisi sifatida bir butun roman timsolidagi aniqlashtiruvchi markaz hisoblanadi" (M.Baxtin). Shuningdek, xronotop janr, kompozitsiya, obraz, badiiy asar tili va uslubi, muallif, o'quvchi singari eng muhim birliklar potensiyasi va tabiatini belgilaydi. Bu xronotop shakllari asar tarkibida yagona tizim bo'lib, uzviy munosabatda yashaydi va harakatdagi badiiyat fenomenini hosil qiladi" [2].

Haqiqatdan ham, sujet tarkibidagi makon va zamonsiz hech bir voqelikni tasavvur qilish mumkin emas. U xoh tarixiy, xoh zamonaviy roman bo'lsin. Negaki, xronotopning turlari va shakllari juda ham ko'pki, uni bir so'z bilan ifodalab bo'lmaydi. Masalan, adib mifologik kiritma hikoyalarda voqelikka tarixiylik jihatdan yondoshadi. Shahar, qishloq, ko'cha, mehmonxona, yo'l, uchrashuv xronotoplari "Shox" romanida sujet va kompozitsiya yaxlitligini ta'minlashga qaratilgan.

Adabiyotshunos A.Nasirov qayd qilganidek: "Ma'lumki o'qar suv adabiyotda vaqtni, yanada aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, inson umrini bildiruvchi majoziy obrazlardan biridir" [3]. Inson umrining naqadar murakkabligi emas, tabiat mo'jizalari oldida "lahzalik" hayot ekanligini anglamaslik fojialigini turfa xil xarakterlar asosida talqin etgan. "Qo'rg'onlangan oy" romaniga ham e'tibor qarataylik, yozuvchi talqinlaridagi bir necha o'rinlarda, o'qar suv tasviri beriladi, asar qahramonlarining ruhiyatiga hamohang tarzda talqin qilinadi: "Murtazo ko'ngli noxushlanib, atrofqa qarashga ham hafsalasi kelmay, xarsang tosh ustida o'tirardi. U suv tubida yalt-yult qahrabodek tovlanayotgan toshlarga nigohini qadab olgandi" [4]. Asar qahramoni qalb qaridagi iztiroblarini yuzaga chiqarish imkonini topolmas, kunlik hayoti esa, o'ta shafqatsizlarcha o'tar, uning dard-u alamlari muhitga, hayotning qiynoqlariga uzviy bog'lanib ketardi. Rahmonga nisbatan nafrat hissining kuchayishi, unga qarshi isyonni shakllantirib boradi.

"Adabiy-badiiy xronotopda makon va zamon alomatlarini bir butun va aniq idrok etish mumkin. Bu yerda vaqt tig'izlashadi, badiiy nigohga aylanadi; makon esa vaqt, sujet va tarix harakati doirasida jadallashadi hamda kengayadi. Zamon alomatlari makonda ko'rinsa, makon

zamonda o'lchanadi va anglanadi. Bunday qorishiq alomatlar oqimida badiiy xronotop tabiati namoyon bo'ladi" [5]. Darhaqiqat, makon va zamon voqeligi qahramon ruhiyati orqali, uning qarashlari zamirida yanada yorqinroq aks eta boshlaganligini his etish mumkin.

Romanda yo'l xronotopi. "Shox" romanida badiiy xronotopning namoyon bo'lishi ko'proq shahar va qishloq orasida bo'ladigan voqeliklar silsilasidan iboratligi ayon bo'ladi. Yozuvchi sujetda o'zining konseptual maqsadini aniqlashtirish uchun – yo'l xronotopidan unumli foydalangan. Masalan, ko'pgina voqealar O'rta Osiyo va Rossiya sarhadlarida kechadi.

Bu sarhadlarning turfa xil kurashlar, badiiy qahramonlarimizning ma'naviy dunyosini ochib berar, inson nafsining qurboniga aylanish jarayonlari obrazlar olamiga singdirilardi. Savdogar yigitlar Hotam va Qulmahmud sarguzashtlari asosan yo'llarda ochib beriladi. Ularning savdo-sotiq ishlaridagi dilxiraliklari, omad va omadsizliklari, tanishuv va uchrashuvlari, ko'ngilochar suhbatlari yo'lda sodir bo'ladi. Hotam va Qulmahmud o'zlarining manfaati yo'lidagi qabih rejalarini ham yo'ldagi uchragan yo'lovchilar bilan baham ko'rib, qulay sarmoya olish ilinjida ko'plab mayda ishlarni ham bajarib ketishdan qaytmaydi: "Hotam poyezddan tushgach, tuyqus yorug'likka chiqib olganday his etadi o'zini. Boshi xiyol aylanib, ko'zi qamashdi. Kuz oxirlab borayotganiga qaramay, osmon ochiq, quyosh charaqlab turardi. Daraxtlar shoxidan uzilib tushgan yaproqlar tosh ko'chalarda begona yurtda adashib qolgan bolalar kabi uyoqdan-bu yoqqa, bu yoqdan-uyoqqa bosh urar, o'zlarini qo'ygani joy topolmay yo'llarda, ariqlarda to'dalanardi. Ularning tepasida quruq og'ochlar zanjirband qilib qo'yilganday mung'ayib turardi. Hotam, surunkasiga bir hafta o'taverganidan, yotaverganidan uvishib qolgan oyoqlarini alpang-talping tashlaganicha, kirakash yengil mashinalar turgan maydoncha tomon yurdi. Uning atrofini besh-o'nta haydovchi o'rab oldi. Qayoqqa boryapsiz, eltib qo'yaylik, dedi hol-joniga qo'yishmadi. Hotam ularga e'tibor bermadi. Indamay ketaverdi" [6].

Ushbu lavhada Hotamning Rossiyaga borib qolganini ko'rish mumkin. U katta sarmoyador ayol va janob Ximer safdoshi Larisa Ziganshinaning topshirig'i bilan borgandi. Mana shu maxfiyroq tuyulgandek ilk safar Larisa Ziganshinaga katta manfaat keltirishi kelishib olingandi. Janob Van Tu singari xitoylik tabobat ilmi sohiblari bilan kechgan poezdagi muloqot Hotamga nimalar qilish mumkin-u, nimalardan tiyilish lozim degan hikmatomuz nasihatlarini yodiga solardi. Uning yagona niyati qanday qilib bo'lmasin, sayg'oqning shoxiga muhtalo biznesmenlar auditoriyasini topish va u yerdan mo'may daromadni qo'lga kiritish bo'lib qolgandi. Shuning uchun ham yozuvchi Hotamni yo'ldagi sinovlar, sarguzashtlar, uchrashuvlarda qat'iy sinovdan o'tkazadi. Natijada, qahramon yigit o'ziga ko'plab hayotiy tajribalarni to'playdi. Aldov va aldanish orasida kechayotgan xayollarida Hotam o'ta ehtiyotkor bo'lib qadam bosishi muhimligini anglab yetadi.

Adabiyotshunos A.Nasirov qayd etganidek: "Har qanday obraz ma'lum bir badiiy zamon va makonda harakat qiladi. Zamon va makon masalasi B.S.Meylax, G.E.Lessing, Yu.M.Lotman, A.A.Fridman, M.Baxtin, M.S.Kagan, V.V.Molchanov kabi so'z san'atkorlarining asarlarida bevosita san'at va adabiyot bilan uzviy bog'liqlikda o'rganilgan" [7]. Binobarin, mazkur olimlar badiiy xronotop masalasini turli xil shakllarda tadqiq qilishgan bo'lsa-da, yangi o'zbek romanchiligida kechayotgan sifat o'zgarishlarini aniqlashda asosiy manba bo'lib xizmat qilishi mumkin.

"Badiiy asarda "vaqt" haqida so'z borganda, eng avvalo, uning sujet funksiyasidagi vazifasiga e'tibor qaratiladi. Bayon oqimini tezlashtiruvchi yoki, aksincha, sekinlashtiruvchi

vazifasini ba'zi holatlarda esa o'quvchi idrokiga to'g'ridan-to'g'ri tashqi ta'sir qilish mumkinligi ham e'tirof etiladi" [8]. Darhaqiqat, badiiy asardagi vaqtga nisbatan keng turdagi sujetning tashkillanishi xronotop negizida bo'y ko'rsatishini tan olamiz. Vaholanki, u bir vaqtning o'zida o'tmishga aylangan kecha, bugun va uning ertangi taqdiriga olib boruvchi yo'llarni sarhisob qilishga imkon beradi.

"Shox" romanida **yo'l xronotopida** Hotam va Qulmahmudning qabih va ayyorona rejaları natijasida – fojiviy bir suratlar namoyon bo'lishini shayton obrazlari Larisa Ziganshina va janob Ximerdan bo'lak hech kim tiniq va manfaatli anglay olmaydi. Shu boisdan ham, yozuvchi bu qahramonlarga mifopoetik nuqtayi nazaridan baho berishni ma'qul ko'radi. Shuningdek, romandagi xronotop chizig'i yo'lovchilarning maqsad va niyatlarini amalga oshirishga yo'naltirilsa, boshqa tomonda sujet voqealarini qiziqarli va rivojlantirishga xizmat qiladi.

Uchrashuv xronotopi. Romanda yana bir xronotop shakllaridan biri – uchrashuv xronotopi sanaladi. Unda xuddi yo'l xronotopi kabi voqealar ro'y beradi. Romanning oltinchi bobida Hotam va Qulmahmudning uchrashuvini tasvirlaydi. Adib bu yerda ularning o'zaro rejalarini, keyingi ishlarga ma'qul qaror qabul qilishini Hotam tilidan ifodalaydi. Negaki, Hotam o'sha uchrashuv sahnasida Rossiyaga bir necha marta borib, ishlari yurishib, mo'may pul to'plab kelganligi haqida so'z boradi. Qulmahmud u uchun yordamchi va vositachi bir hamroh ekanligini bilib qoladi. Qulmahmud o'zining jirkanch nafsı yo'lida ana shunday tarzda roman poetikasida gavdalanadi. "Ko'pincha adabiyotda uchrashuv xronotopi kompozitsion funktsiya bajaradi: ba'zan tugun, ba'zan kulminatsiya, ba'zida esa sujet yechimi vazifasini o'taydi... Ayniqsa, uchrashuv motivi – turli xil yo'l uchrashuvlar – yo'l xronotopi ("katta yo'l") bilan muhim bog'lanishga ega. Yo'l xronotopida makon-zamon uyg'unligi mukammal tarzda aniq va yorqin ochiladi... Mifologik, diniy sohalarda uchrashuv motivi, albatta, yetakchi vazifalardan birini bajaradi: ilohiy naqllarda, ilohiy bitiklarda (masalan, masihiylar "Injil"ida bo'lganidek buddaviylik ham), diniy marosimlarda uchrashuv motivi "yaralish" motivlari bilan uyg'un keladi" [9].

Binobarin, mana shu "uchrashuv motivi"da "Shox" romanidagi asosiy sujet liniyalari o'z yechimi sari rivojlantiriladi. Masalan: **A** voqea sodir bo'ldi. Hotam, Larisa Ziganshina bilan uzum savdosi bo'yicha o'zaro uchrashuv o'tkazdi. Bir-birlariga ishonch bo'lmagan paytida, oradagi "nozık" bitim ularni ruhan va manfaat nuqtayi nazaridan yaqinlashtirdi. **B** voqea – Qulmahmud bilan sodir bo'ladi. U shox haqidagi mulohazasi bilan Hotamga ishning tezroq bitishi uchun vositachi rolini o'ynaydi. Uchinchisi, janob Ximer bilan Hotamning o'zaro kelishuvi. Manashu – uchrashuv xronotopi roman arixtektikasida katta ahamiyat kasb etadi: "Qulmahmudning tasodifan uchrab qolganidan Hotamning og'zi qulog'iga yetdi. U qayta-qayta: – Ob-bo, og'ayniyey, xuddi bilganday chiqibsiz-a! – der, kallasini sarak-sarak qilardi. – Qulmahmud ham qilday ingichka mo'ylovini pırpıratib tinmay javrar, anchadan buyon shaharga mashina haydab tushmaganini, qishloqda yotaverib zerikkanini, bi-ir shaharga boray-chi, bitta-yarimta ko'ngilyozar jononmi, ulfatmi uchrab qolar-da, degan xayolda endi yetib kelganini; vokzal yonidan o'tayotib mundo-oq qarasa, Hotamga o'xshagan bir yigitning allaqanday ipirisqi bilan gaplashib turganini tuyqus ko'rib qolganini, Hotamga o'xshagan yigit haqiqatdan ham Hotam bo'lib chiqqanligini, allaqanday ipirisqiga o'xshagani kirakash ekanligini qayta, qayta takrorlar; kallasiga qandaydir xayol kelib qolganidan, maydoncha tomonga o'z-o'zicha nazar tashlab qo'yganidan, chamasi, o'zida yo'q shodlanar, Hotamniyam dimog'ini tobora chog'lardi" [10].

Mana shu uchrashuv lavhasida Hotam va Qulmahmud oralaridagi qandaydir bog'liq bir manfaat ko'zga tashlanadi. Yozuvchi atayin ikki do'stni uchrashtirib, keyingi tafsilotlarga "yurish" niyatida tayyorlaydi. Qulmahmud – o'z nafsining quli! U uchun hamisha shahvat va o'z nafsi birinchi o'rinda. U mol-dunyodan ancha yiroq shaxs. Faqat aysh-ishrat bilan bazo'r ko'n o'tkazsa undan baxtli odam yo'q. Hotam shu suhbatdan keyin uni o'ziga yaqin bir hamroh sifatida tanlaydi. Shu hamrohligi abadiy bo'lishi uchun uzundan-uzun jo'yali rejalar tuzib chiqadi. Bularning barchasida – Hotam va Larisa Ziganshina kabi mo'may pul topish ilinjida har qanday pastkashlikdan tap tortmaydigan toifadagi shaxslar obrazi yaqqol ko'z o'ngimizda gavdalanadi. Adib juda oddiy va murakkab sujet liniyalarini badiiy matnga singdirib boradi. Aslida, badiiy asarga bu kabi "ramziy to'n" kiygizish uchun qadim mifologik voqealar sujet rivojini jadallashtiradi hamda roman poetikasini va kompozitsion yaxlitligini ta'minlashga xizmat qilgan.

Adabiyotshunos J.Eshonqul ta'kidlaganidek: "Ma'lumki, olamning yaralishi, xudolar, ularning o'rni, vazifasi, umuman dunyoning va insonning yaralishi haqidagi tasavvurlar yig'indisidir. Xo'sh, bu tasavvurlarning, poetik tasavvurga, asar poetikasiga qanday aloqasi bor?! Bu ham shu bilan ifodalanadiki, asarda ham mifdagi dunyo kabi yozuvchi dunyosi yaraladi: ya'ni keng olam haqida asarda faqat shu yozuvchiga xos ma'lum g'oya singdirilgan va ma'lum g'oyasini ifoda etgan dunyo yaraladi. Ana shu kichik olam yozuvchining katta olam haqidagi mifologik mushohadasining mahsuli o'laroq paydo bo'ladi; asarda o'z olamini yaratayotgan yozuvchi bilan olam haqida mif yaratayotgan ajdodi o'rtasida farq yo'q" [11].

Romanning o'ndan ortiq o'rinlarida mif va rivoyatlarga zamon nuqtayi nazaridan baho berilib, shayton va boshqa aqlidan, yo'ldan ozdiruvchi turli narsalar qat'iy qoralanadi. Yaratganning qahriga uchragan obrazlarni ustalik bilan matn qa'riga singdirishga harakat qiladi. Shu tariqa yozuvchining ijodiy konseptual manerasi yuzaga chiqa boradi. J.Eshonqul ta'kidlagan mifopoetik unsurlar tabiatida haqiqatdan ham janob Ximer kabi shayton obrazlarining asl razolatga g'arq bo'lgan qiyofasi akslanadi.

Bunday obrazlarni keyingi davr romanчилигida Isajon Sultonning "Boqiy darbadar", Ulug'bek Hamdamning "Isyon va itoat" romanlarida uchratish mumkin. Mazkur romanlarda ham insoniyatni halokat chohiga yetaklovchi, mutassil fojiaga girftor aylovchi qahramonlarni kuzatamiz. Ular ham janob Ximer kabi odamlarni yo'ldan chiqaradi. Abadiy do'zax sari boshlaydi. Ichkilik, qimborbozlik, zino va hasad kabi qator shahvoniy, hayvoniy illatlarni mahorat bilan yoritib berganligida qabarib ko'rinadi. Janob Ximer insoniyatning boshiga kelgan qora tashvish ramzi. U har qanday vaziyatda o'zligidan ayiruvchi va tamomila turmushini izdan chiqaruvchi ko'kish alanga sochib turuvchi shayton! Mana shu shaytonga yetaklagan shahvoniy nafs Qulmahmudda borligini bilgach u qurbonlik sifatida tanlanadi. U insoniyatning kelajagini barbod qilib tashlovchi tajriba ramzi sifatida romanda yaqqol namoyon bo'lgan:

"Qulmahmudni hozir uning nechki yoshda tuqqanligi-yu, nechchiga kirganligi qiziqtirmas, bir-ikki kun avval Polina qo'ldop ko'tarib, u yoqdan-bu yoqqa, bu yoqdan-u yoqqa chopib yurgan paytida unga nisbatan ko'ngliga tug'ilgan hirsni qondirish payida edi, xolos. Polinaning ko'zi g'ilaymi, sochi oqarganmi, Qulmahmudga farqi yo'q. Uning ko'nglida bu ayolning faqat bir narsaning istifoda etishgina bor edi. Mana shu ko'rimsiz, burishiq Polinaga nima uchun nazari tushib qolganining sababini Qulmahmud tushuntirib berolmas, xayolidayam nimalardir uni shunga da'vat etgan edi. Hali zamon o'ylagan, uni chalg'itib, qochib qolish kerakligi haqidagi lahzalik o'y-g'am o'sha nimaningdir soyasida qolib ketdi-da, Qulmahmud

mo'ljallangan rejasining amalga oshib borayotganidan suyundi. Biroq, Polinaning o'g'li borligi, o'g'li yosh emasligi, o'ttiz uch yashar ekanligi, uning rejasi to'la-to'kis amalga oshishiga raxna solib turadi" [12]. Insonning ma'naviy qiyofasini tasvirlar ekan, adibning hayotdagi og'riqli voqealar, uning qalbini larzaga soladi. Insonga berilgan lahzalik umr ham samarasiz ketayotganligini anglamagan, his eta olmagan shaxslar qiyofasida jonlantirilgan. Mana shu uchrashuv sahnasida ham yozuvchi makonni o'zga sarhadlardan tanlaydi. Nafs itining izidan ergashib, o'zligini fojeli sari yetaklayotgan qahramonni ayovsiz taftish qiladi. Mana shu uchrashuv sahnasi Qulmahmudni tuzoqqa tushiradi. Bu tuzoq janob Ximerning galdagi shou rejalariga muvofiq keladi. U shayton qiyofasida butun odamlar ichida, istaklarida, nafs-u ammorasida yashayotganidan faxrlanadi. Uning nazdida odamlar ojiz va notavon bo'lib ko'rinadi. Xilma-xil kechmishlar orasida o'tayotgan umrga zavol tilaydi. Aslida yozuvchi – janob Ximerni bekorga tanlamagan. Savdo-sotiq bo'ladimi, ta'lim yoki soxta shon-shuhratga o'ch olomon kayfiyatini bozorga moslashtirishga urinayotgan janob Ximer kabi manfaat egalari har qanday davrda yashashda davom etayotganidan ogoh qiladi. Kitobxon tasavvurida janob Ximer ko'p qirrali va murakkab obraz. U odamzodning ko'ziga qarab, ichidagi asl maqsadlari-yu, niyatlarini so'zsiz ko'kish alanga sochib turgan ko'zi orqali his qiladi. Demak, uning haqiqiy basharasi quyidagi lavhada ham haqqoniy idrok etilgan: "Janob Ximer ko'k kitobni yopib joyiga qo'yarkan, ko'kish alanga tushirilgan tasvirga boqib: – Lahzada va abadiyan! – deya shivirladi qasamyod so'zlarni takrorlaganday. Bu choqda qabulxonada ekspertlar guruhi yig'ilishgan edi. Doktor Rabinovich ham kirib keldi, uning ko'rinishi g'alati edi, egnida ancha paytlardan buyon dazmol ko'rmagan kostyum-shim bor edi. Uzun jingalak sochlari to'zg'ib, goh u tomonga, goh bu tomonga tushib turgani uchun boshining qaysi qismi kal ekanligini ham bilib bo'lmasdi. Qovoqlari shishgan, qizarib turgan ko'zlari tevarak-atrofga jonsaraklik bilan boqar, ba'zan bir nuqtaga qadalgancha qotib qolar, ko'rayotganini ko'rib ko'rmayotganga o'xshar edi. Yig'ilganlarning ba'zilari bilan u juda quyuq so'rashdi. Ba'zilarning uzatilgan qo'llari havoda qoldi. Yo'q, u shaxsiy munosabat tufayli bunday qilmadi. Doktor Rabinovichda shaxsiy munosabatning o'zi yo'q edi. To'g'rirog'i, bu haqda bosh qotirishga, buni o'ylashga fursat bo'lmasdi. Qabulxonaning deraza tokchasida tuvakdan o'sib chiqib, shipga yetgan chirmovuqning nimasidir uni qiziqtirib qoldi, unga andarmon bo'lib, uzatilgan qo'llarni-da, tevarak- atrofni-da unutdi, qo'ydi. Chirmoviqgulning nimasi qiziqtirib qolgani uning yolg'iz o'ziga-yu xudogagina ayon edi, xolos" [13].

Janob Ximerning "Lahzada va abadiyan" shiori butun yig'ilganlarni sergaklantirar ekan, uning kelajakda qanday ishlarga qodir ekanligini bilish qiyin edi. Romanda nega ko'kish alanga ramzi tanlangan. Bu rang mifopoetik talqin qilinib, romanga ayni Ximer obrazini yanada aniqroq bilib olishga ishoradir. Atayin "Ko'k kitob"ning shaytonga megzalgan ramzi sifatida baholanishi Qulmahmudning ruhiy inqirozga yuz tutayotganidan dalolatdir. Adib bu o'rinda ikki jihatni nazarda tutadi: birinchidan, janob Ximer tajribaga mos odam Qulmahmud deb biladi, ikkinchidan shu yo'sinda sayg'oq shoxidan tayyorlangan dorining retseptini va zuvalasini yasashga yo'l topadi. Doktor Rabinovich esa Ximerga maslakdosh inson tarzida sujetni yaxlitlashtiradi. Voqelik har xil tafsilotlar bilan ochilib, bir tomonda qadim rivoyatlarda keltirilganidek, odamzodning joriy lahzada hayvoniylashuv prosessida umr kechirayotganidan nishonadir.

Umuman olganda, romanda xronotop va mifologik talqin badiiyati keng qamrovli mazmunga ega. Unda ham jamiyat taloto'plari, ham odamlar ruhiyatidagi shon-shuhratga

tashnalik, ham mehnatsiz mo'may daromad sohibi bo'lishga intilish, ham o'z kelajagini harom-xarish, aysh-ishrat yo'llari bilan parokanda qilishlik g'oyasi qabarib ko'rinadi. Negaki, o'lim sari borayotgan Qulmahmud kabi ojiz bandalar shayton qiyofasidagi la'natlangan odamlar uchun tirik boyluk bo'lib tuyuladi. Bunday lavhalar roman to'qimalarida badiiy xronotopning har xil usullari aralash turda zuhur etilganligini tasdiqlaydi. Adib ana shu mezondan turib, jamiyatdagi illatlarni ham keskin tanqid ostiga olishga kirishadi. Zero, baxt va baxtsizlik to'g'risida sira o'ylab ham o'tirmaydigan Qulmahmud singari qatlam vakillari uchun Yaratganning bergan omonat – joni qiymatsiz va qadrsizdir.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Эшонкул Ж. Фолкълор, образ ва талқин. – Қарши, Насаф, 1999. – Б.141
2. Жўрақулов У. Назарий поэтика масалалари. –Тошкент, Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2015. 103-бет
3. Насиров А. Бадийлик ва ҳаётий ҳақиқат. Монография. – Туркия, Истанбул, Кесит, 2019. 43-бет.
4. Михаил Б. Романда замон ва хронотоп шакллари. Тарихий поэтикадан очерклар (Рус тилидан Узоқ Жўрақулов таржимаси). –Тошкент, Академнашр, 2015. 43-44-бетлар.
5. Бўтаев Ш. Шох. Роман. – Тошкент, ?-Б. 32.
6. Насиров А. Одил Ёқубов романлари поэтикаси. – Самарқанд. Филолология фан.док. диссер.си. автореф. 2018. –Б.21.
7. Молчанов В.В. Время как прием мистификации читателя в современной западной литературе / Ритм пространство и время в литературе и искусстве. Л.: Наука, 1974. С. 200-201.
8. Бахтин М.М. Вопросы литературы и эстетики. –М.: Художественная литература, 1975, стр. 399.
9. Бўтаев Ш. Шох. Роман. – Тошкент, ? -Б.35.
10. Эшонқулов Ж. Фолкълор образ ва талқин. – Қарши, Насаф, 1999. –Б.149.
11. Бўтаев Ш. Шох. Роман. – Тошкент, ? -Б.122.
12. Кўрсатилган адабиёт, 122.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ S/2 (4) – 2024

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).